



YOSHLARGA E'TIBOR YANADA KUCHAYADI

2

ATROF-MUHITNI ASRASH BARCHANING BURCHI

3

ISHCHILAR XAVFSIZLIGI ENG MUHIM VAZIFA

5

Po'lat o'tda toblanadi, odam - mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2024-yil 30-yanvar № 1 (1535)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI



BUGUNGI SONDA

SARHISOB

Kombinatning imkoniyatlari yetarli 2

MEROS

Beqiyos ma'naviy xazina 4

80 YILLIK OLDIDAN

Yangi davrga moslashish oson bo'lmagan 6

SUD ZALIDAN

“O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas” 7

SO'RAGAN EDINGIZ

Zararni kim qoplaydi? 8

SALOMATLIK

Immunitetni mustahkamlash 9

SPORT

“Metallurg” yangi mavsumga tayyorlanmoqda 10

TAFAKKUR

Xulosa qilishga shoshmang! 11



YANGI BOSQICHGA KO'TARILADI

Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratish yanada kuchaytiriladi. Ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, "yashil" va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Yangi ish o'rinlari tashkil etish, aholi daromadlarini oshirish e'tibor marka-

zida bo'ladi. Ish haqi, pensiya va stipendiya hamda nafaqalar miqdori ko'paytiriladi. Xotin-qizlar va nuroniylarni, yordamga muhtoj insonlarni qo'llab-quvvatlashga alohida ahamiyat beriladi. Ijtimoiy sohalar rivoji mutlaqo yangi bosqichga ko'tariladi.

Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash, Qurolli Kuchlarimiz jangovar salohiyatini oshirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

YOSHLARGA E'TIBOR YANADA KUCHAYADI

Har qanday davlatning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

"O'zmetkombinat" AJda ham yoshlarga alohida e'tibor qaratib kelinadi. Bugungi kunda kombinat yoshlarining yaxshi natijalarga erishishi, hayotda va ishda o'zining munosib o'rnini topishi uchun kombinat yoshlar yetakchilari Kengashi tomonidan ishchi guruh tashkil etilib, yoshlarning muammolari va ularning yechimlariga oid takliflari o'rganib chiqilib, vakolat doirasida hal etib borilmoqda. Yoshlar o'rtasida huquqiy madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat hamda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, mafkuraviy immunitetni mustahkamlash maqsadida turli uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazib boriladi. Yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini, badiiy adabiyotlar o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytirish maqsadida ular o'rtasida har yili an'anaviy tarzda "Yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tadi.

Yoshlar o'rtasida doimiy turli yo'nalishdagi sport musobaqalari o'tkazib boriladi. Jumladan mini-futbol bo'yicha har yili an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan "Boshqaruv raisi kubogi" yoshlarning eng sevimli



musobaqalaridan biriga aylandi.

Yoshlarning nafaqat ma'nan yoki jismonan barkamol va yetuk bo'lishi uchun, balki ilmiy, kasbiy rivojlanishi uchun ham keng imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Xususan, har yili kombinat yoshlari o'rtasida "Innovatsion konferensiya" o'tkaziladi va ushbu konferensiyada yoshlar o'zlarining innovatsion g'oyalari bilan ishtirok etadi. Konferensiya natijalariga ko'ra, unda himoya qilingan ratsionalizatorlik takliflarining yaxshilari ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etiladi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida "Eng mohir yosh tokar", "Eng mahoratli yosh

payvandchi", "Eng faol yosh elektromontyor" va "Eng zukko metallurg" ko'rik-tanlovlari o'tkazib boriladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda yoshlarning rahbarlar bilan yaqindan muloqatda bo'lishi, ish tajribalarini o'rganishi, ulardan kerakli tavsiya va maslahatlarini olishi uchun kombinatda "Rahbar va yoshlar uchrashu-



vi" ochiq muloqotlari o'tkazish an'anaga aylangan. Bundan tashqari, kombinat mehnat faxriylari va o'rta yosh vakillarining namunali mehnat faoliyatlaridan o'rnak olishlari uchun "Uch avlod uchrashuvi" tadbirlari tashkil etib boriladi.

O'tgan yildan e'tiboran "O'zmet-

kombinat" AJ yoshlari ishtirokida tarkibiy bo'linmalar o'rtasida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovi o'tkazish yo'lga qo'yildi. Ko'rik-tanlovda takrorlanmas va yumorga boy hazillar bilan ishtirok etayotgan yoshlar bu sohada ham qay darajada mahoratli ekanliklarini isbotladilar.

"O'zmetkombinat" AJ yoshlari o'rtasida "Zakovat" va "O'MKQUIZ" intellektual-ko'ngilochar o'yinlari o'tkazilmoqda. Bu metallurg-yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishlari hamda ularning intellektual qiziqishlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2024-yil yurtimizda "Yoshlarni va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlanishi kombinatimizda ham bu boradagi ishlar ko'lami yanada kengaytirishi tabiiy. Biz uchun bu yilning mas'uliyati yuqori

bo'lishini, ishlarimiz har qachongidan ko'payishini his qilib turibmiz. Va bu yo'lda biz yoshlar shijoat bilan mehnat qilishga tayyormiz.

Abdug'affor MIRZAYEV,
"O'zmetkombinat" AJ Yoshlar yetakchilari Kengashi raisi.

KOMBINATNING IMKONIYATLARI YETARLI

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari ko'lami joylarda foydalanishga topshirilayotgan yangidan-yangi ob'ektlar, zamonaviy turar-joylar misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Binobarin, kunda kunora yurtimizning qaysidir manzilida yangi turar joy yoki ishlab chiqarish ob'ekti qurib bitkazilganiga oid xabarlarini eshityapmiz, ko'ryapmiz, o'qiyapmiz.

Bunyodkorlik ko'lami kengaygani sayin "O'zmetkombinat" AJda ishlab chiqarilayotgan prokat mahsulotlariga bo'lgan talab yanada ortib bormoqda.

2023-yilda kombinatda 920,7 ming tonna po'lat eritildi. Bu mahsulotning 822,9 ming tonnasi Elektrda po'lat eritish sexida, 97,8 ming tonnasi "LI DA metall" korxonasida ishlab chiqarildi.

O'tgan yili kombinatda rejada belgilangan

1 million 20 ming tonna o'rniga 1 million 28 ming tonna prokat mahsulotlari tayyorlandi. Bu mahsulotlarning aksariyati Navli prokatlash va Zoldir prokatlash bo'linmalarida ishlab chiqarildi. Har ikkala bo'linma ham yillik rejalarini ziyodi bilan bajardi. Shuningdek, rangi metallar ishlab chiqarishda ham yillik rejalar ziyodi bilan ado etildi.

Kombinatda 120,5 milliard so'mlik amaldagi

narxlardagi xalq iste'mol mollari ishlab chiqarildi.

Kombinat mahsulotlarini eksport qilish rejasi ham oshig'i bilan bajarildi. Bu esa mahsulotlarning jahon andozalari talablariga to'liq mos ekanligidan darak beradi.

2024-yilda ham eksportbop va import o'rnini bosadigan, jahon bozorlarida raqobatbardosh, zamonaviy iste'mol bozori talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish, bu orqali esa katta miqdordagi valyutani tejash, mahalliy xomashyo va mineral resurslardan foydalanishda innovatsion yondashuvlarni keng tatbiq etish bekorodlik metallurglarning asosiy vazifalaridir. Mazkur yo'nalishda kombinatning imkoniyatlari yetarli.

Diyor ZULFIQOROV.



EKOLOGIYA VA ATROF-MUHITNI ASRASH - DOLZARB VAZIFA

Tabiatimizni, atrof-muhitimizni toza va ozoda saqlash, asrab-avaylash va uni chiroyli tarzda kelajak avlodga omonat tarzda yetkazish hammamizning mas'uliyatli burchimizdir. Bugun barchamiz kelajak avlod uchun toza havo, suv, yer osti va ustki boyliklarini, hayvonot dunyosini boricha saqlash hamda uni kelajak avlodga yetkazish uchun kurashmog'imiz lozim.

Kombinatimizda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashda ham energetika resurslarini tejamlovchi, tabiatga chiqit chiqarmaydigan dastgoh, asbob-uskunalar ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. Tarkibiy bo'linmalarda atmosfera havosiga tashlanayotgan zararli moddalarni kamaytirish, o'simlik dunyosi, yer resurslarini yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar har yili rejalashtirilib, amalga oshirilib kelinmoqda.

Kombinatda atrof-muhit musafoligini ta'minlash bo'yicha har yili ko'plab tadbirlar rejalashtirilib, ular to'liq bajarilmoqda. 2023-yili kombinat jamoasi undan avvalgi yilga nisbatan atrof-muhitga kam chiqindi chiqarib, bu boradagi vaqtinchalik kelishuvga muvofiq faoliyat ko'rsatdi.



"O'zmetkombinat" AJ boshqaruvi buyrug'i bilan bu yil ham atmosfera havosi, suv ob'ektlarini, o'simlik dunyosi va yer resurslarini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Unga asosan 2024-yilda atmosfera havosi, suv ob'ektlarini, o'simlik dunyosi va yer resurslarini muhofaza qilish

bo'yicha 55 ta chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirildi. Havo havzasini muhofaza qilish bo'yicha 22 ta, suv havzasini muhofaza qilish bo'yicha 16 ta, yer resurslari va o'simlik dunyosini muhofaza qilish bo'yicha 17 ta chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Bu chora-tadbirlar rejasi atmo-

sferaga zararli moddalar chiqarilishini, ishlab chiqarish oqava suvlarining tabiiy suv havzalariga tashlanishini yanada kamaytirish, yashil maydonlarni asrash, yer resurslarini muhofaza qilish va kombinatda qulay ekologik muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Qadrli metallurglar!

Har birimiz atrof-muhitning ifloslanish darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni saqlash, ekologik bilimni keng targ'ib qilish, shuningdek, ekologik madaniyatni yuksaltirishga intilishimiz darkor. Nabot va hayvonot dunyosini qanchalik ehtiyot qilib, unga oqilona munosabatda bo'lsak, suv va suv havzalariga ham shunday insoniy munosabatda bo'lishimiz zarur.

Kelajak avlodga tabiat boyliklarini bus-butun yetkazish, muammolarni bartaraf etishga hissa qo'shish har birimizning vazifamiz.

Ismat DIYOROV.

Kombinat tarkibiy bo'linmalarini elektr energiyasi bilan uzluksiz ravishda ta'minlab kelayotgan Elektr tarmoqlari va podstansiyalar bo'linmasida o'tgan yili bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, jamoaning sa'y-harakatlari bilan reaktiv energiya kompensatori qurildi, bu esa energiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berdi.

SALMOQLI ISHLAR AMALGA OSHIRILDI

Transformatorlarning foydalanish muddati tugagan 220 kV kuchlanishli "VVOD"lari va kuchlanishni yuklama ostida rostdash qurilmasi yangisiga almashtirildi. Bu esa transformatorlarning ishlash muddatini yanada oshiradi. Elektr tarmoqlari va podstansiyalar bo'linmasiga o'rnatilgan transformator yog'laridan samarali foydalanish uchun ularning kimyoviy xossalari aniqlash maqsadida xromatografik tahlillar o'tkazildi.

Ushbu jamoa tomonidan Temir-tersaklarni qayta ishlash bo'linmasiga qarashli PGV-4 podstansiyasidan "TP-41" va "TP-41A" transformatorlarigacha bo'lgan eskirgan 10 kV yuqori kuchlanishli kabellar yangisiga almashtirildi.

Elektr tarmoqlari va podstansiyalar bo'linmasi tomonidan elektr jihozlari, kabel va havo elektr uzatish liniyalarining ishlashini ta'minlashga qaratilgan profilaktik sinovlar, rejali ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda bajarib kelinyapti.

2024-yilda Quyuv-prokatlash majmuasi qurilishi doirasida "Pechnaya" va "Metallurgiya" podstansiyalarining elektr ta'minotini rekonstruksiya va modernizatsiya qilishni davom ettirish rejalashtirilgan. Shuningdek, "UKKRM-10 kV" loyihasini amalga oshirish, elektr energiyasi xarajatlari kamaytirish uchun "PGV-2" podstansiyasida reaktiv energiya kompensatorini o'rnatish ham belgilangan.

Bundan tashqari "PGV-4" va "GPP-110/35/6 kV" podstansiyalarida xizmat muddati tugagan 110 kV kuchlanishli "VVOD"larni almashtirish ham ko'zda tutilgan. Podstansiyalarda o'tkazilishi rejalashtirilgan ishlar orqali ularga xavfsiz texnik xizmat ko'rsatish, elektr ta'minoti ishonchligini oshirish, avariya va to'xtab qolishlar sonini kamaytirish, elektr jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish kabilar ko'zda tutilgan.

Karim TOSHMATOV.

SAMARALI MEHNATGA MUNOSIB EHTIROM

Nafaqa yoshiga yetgan ishchi-xodimlarni tantanali tarzda pensiyaga kuzatish kombinatimizda an'ana tusiga kirgan. Yaqinda Navli prokatlash bo'linmasi elektr gaz payvandchisi Inomjon Rahmonov jamoa tomonidan tantanali ravishda pensiyaga kuzatildi.

1985-yil kasb-hunar bilim yurtini elektr gaz payvandchi mutaxassisligi bo'yicha tugatgan I. Rahmonov "O'zmetkombinat" AJda qirq yilga yaqin mehnat qildi.

Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish sexida ishladi. 1988-yildan buyon esa Navli prokatlash bo'linmasida ishlab keldi. Bo'linmaning valsatokar uchastkasida avtomatik mashinalar elektr gaz payvandchisi bo'lib ko'p yillar samarali faoliyat ko'rsatdi.

Mana shu davr mobaynida o'z vazifalarini namunali bajarib, hamkasblariga mehnatda o'rnak ko'rsatdi va bir qator shogirdlarga kasb sir-asrorlarini o'rgatdi.

Inomjon Rahmonov bilan birgalikda mehnat qilgan hamkasblari, bo'linma rahbariyati u haqida va mehnatda erish-



gan yutuqlari to'g'risida ijobiy fikrlarini bildirdilar. Bundan keyingi hayot yo'llarida baxt, sog'liq va omad tilashdi.

Unga metallurglar jamoasi nomidan ko'p yillik mehnatlari uchun minnatdorlik bildirilib, sovg'alar topshirildi.

Navli prokatlash bo'linmasining valsatokar uchastkasi jamoasi.



ALISHER NAVOIY VA BOBUR MEROSI

BEQIYOS MA'NAVIY XAZINA

Mamlakatimizda har yili fevral oyida o'zbek mumtoz adabiyotining ikki yirik namoyandalari – Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud sanalarini keng miqyosda nishonlash o'ziga xos an'anaga aylangan.

Mana oradan besh asrdan ortiq vaqt o'tibdiki ulug' mutafakkir bobolarimiz, so'z mulkingning sul-toni Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning boy ma'naviy merosi butun dunyoni hayratga solib, insonlar qalbiga, ongu shuuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat va mehr-muruvvat nurini taratib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, Navoiy va Bobur ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir.

Navoiy turkiy til asosida betakror bog' yaratib, dunyo ahlini hayratga solgan bo'lsa, Bobur shu turkiy nazm gulshanidagi bepoyon bog'ni chin ma'noda bo'stonga aylantirgan va hind yurtida ham ijodkorlar rahnamosi bo'lgan. Shu bois ular ijodi hamon qunt bilan o'rganilmoqda.


Har ikki ijodkor dunyo adabiyoti tarixida ham juda katta o'rin tutishini, xalqparvar davlat arbobi sifatida jamiyatda tutgan yuksak mavqei jihatidan ham, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot ahliga ko'rsatgan homiyligi jihatidan ham o'xshashi yo'q siymodirlar. Ular bugun o'zbek xalqining milliy iftixoriga, adabiy, ma'naviy kamolot timsoliga aylangan.

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy yozgan yuzga yaqin

asarlari bir necha asrlar o'tgan bo'lsada, dolzarbligini hamon yo'qotmagan. Hazrat Navoiy nafaqat ulug' mutafakkir, shoir, balki o'z xalqi, millati taqdiriga befarq bo'lmagan buyuk murabbiy ham edi. U millat va xalq dardi bilan yashadi. Asarlarida jamiyat bilan bog'liq orzu-umidlarini ifodaladi.

Ulug' bobomiz she'r yozishda faqatgina o'zbek tili imkoniyatlari bilan chegaralanib qolmagan, boshqa tillardan ham unumli foydalangan. O'tkir Hoshimov bu borada shunday degan: "Olimlar hisoblab chiqishgan. Pushkin o'z asarlarida 21197 ta betakror so'z ishlatgan, Shekspir salkam 20 mingta, Servantes mingtaga yaqin. Alisher Navoiy esa ulardan ansha ko'p betakror so'z ishlatgan. Boisi, buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo'g'ul va boshqa tillardagi so'zlardan ham mahorat bilan foydalangan".

Bobur buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda sifatida aql-zakovati va shijoati bilan Hindiston-



da Boburiylar sulolasiga asos solganligi, o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma", "Mubayyin", "Xatti Boburiy", "Harb ishi", Musiqa sirlari", "Qofiya ilmi" kabi asarlari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan joy olgan.

Navoiy va Boburning hayoti va ijodini o'rganar ekanmiz, ular umri davomida xalqqa xizmat qilib, bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishlarida shaxsiy ibrat ko'rsatganini yanada yorqinroq bilib olamiz. Ular barcha asarlarida ana shu ezgu g'oyalarni targ'ib etganlar.

Abdusalom ABDULLAYEV.

RAQAMLASHTIRISH BU KORRUPSIYA VA MANFAATLAR TO'QNASHUVINI YO'Q QILISHGA INTILISHDIR

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirish uchun eng muhim vazifalardan biri bu – kombinat ishchi-xodimlari ongini tubdan o'zgartirish, kombinatimizda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirishdir. Bu muammoni hal qilish uchun birinchi navbatda, kombinat ishchi-xodimlari huquqiy madaniyatini tizimli ravishda oshirib borish, xizmat ko'rsatish tartib-taomillarining to'liq shaffofligi va ochiq oshkoraligiga erishishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2023-yil 19-dekabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimidagi o'z nutqida: "... Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan milliy strategiyani ishlab chiqib, hayotga tatbiq etamiz. Davlat idoralari faoliyatining yanada shaffofligini ta'minlash va hisobdorligini oshirish, ochiq ma'lumotlar tizimini takomillashtirish, sohaning huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlarini mustahkamlashga alohida e'tibor beramiz", deb ta'kidladilar.

Bugungu kunda Yangi O'zbekistonni barpo etishda jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini so'zsiz ta'minlashga, ochiqlik siyosatini izchillik va qati'yat bilan davom ettirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish hamda olib borilayotgan va amalga oshirilayotgan ishlar jamoatchilik nazorati tizimi samaradorligini oshirish maqsadida kombinatimiz faoliyatida raqamlashtirishni joriy etish ishlari tizimli ravishda amalga oshirildi. Kombinatda bugungi kunga qadar Axborot texnologiyalari departamenti tomonidan 14 ta axborot tizimlari joriy etildi.

Bular:

- Ferroqotishmalar ishlab chiqarish bo'linmasida ishlab chiqarish hisobini olib boruvchi axborot tizimi;
- Laboratoriya faoliyatining avtomatlashtirilgan axborot tizimi;
- Tayyor mahsulotlar savdo-sotiq jarayonlari uchun avtomatlashtirilgan "E-Navbat" axborot tizimi;



- "IP telefoniya" tizimi;
- "EDO.IJRO.Uz" idoralararo elektron hujjat aylanish tizimi;
- Avtomobillar uchun "GPS – TPEKER" axborot tizimi;
- "Data SENTER" kombinat ma'lumotlar markazi;
- Xodimlarning kirish va chiqishini nazorat qilish, ish vaqti hisobini yuritishning avtomatlashtirilgan tizimi;
- "UMK oylik" telegram boti;
- "SMS xabarnoma" xizmati;
- "E – OSHXONA" taomlarga elektron tarzda buyurtma berish tizimi;
- Kombinatdagi bo'sh o'rinlarini ko'rish va rezyume jo'natish uchun "my.uzbeksteel.uz" elektron portal;
- Kombinatga ishga qabul qilish va malakasini oshirish uchun elektron test tizimi.

Erishilgan yutuqlardan kerakli xulosalar chiqarib va ildam rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda kombinat raqamlashtirish sohasida 2024-yilda Axborot texnologiyalari departamenti yetuk mutaxassislarining bilim va tajribalari asosida quyidagi 5 ta yangi axborot tizimlarini joriy etish rejalashtirilgan:

Elektrda po'lat eritish kompleksi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish tizimini yanada takomillashtirish hisobiga mahsulot tanarxini 2 foizga kamaytirish.

"Ikkilamchiqorametallar" filiallarida tarozilarini integrasiya qilish hisobiga xomashyo qabul qilish nazorati jarayonlarida inson omili aralashuvini keskin qisqartirish;

O'quv jarayonlarini avtomatlashtirilgan tarzda boshqarilishini ta'minlash, o'qishlar to'g'risida o'z vaqtida va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish, jarayonlar va ishlarni ixchamlashtirish va tezlashtirish maqsadida – "1C Korxon" kombinatni boshqarish integrasiyalashgan tizimi negizida xodimlarning malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish jarayonlarini avtomatlashtirish rejalashtirildi.

Kombinat ishchi-xodimlaridan korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining har qanday shakliga nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda mas'uliyat bilan ishtirok etishlarini so'rayman.

Sizlarni befarq bo'lmaslikka, poraxo'rlik va korrupsiya, qarindosh-urug'chilik, manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurashda faol hayotiy pozitsiyani egallashga chaqiraman.

Anvar XUDOYAROV,
kombinatning Axborot texnologiyalari departamenti direktori.

ISHCHILAR XAVFSIZLIGI ENG MUHIM VAZIFA

Mehnat hayotimizning ajralmas qismi bo'lib, har birimiz unga nafaqat munosib haq to'lanishini, balki imkon qadar xavfsiz va qulay bo'lishini istaymiz.

Xavfsiz va munosib mehnat sharoitlarini tashkil etishning asosini mehnat munosabatlari sohasidagi davlat siyosati tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasida ish joylaridagi xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish, fuqarolar sog'lig'ini ta'minlash masalalari davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda mehnatni muhofaza qilish masalalari Konstitutsiya, Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun hamda boshqa qonunosti hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Yangi Mehnat kodeksi avvalgi kodeksdan hajm jihatdan 2,5 baro-

bar katta bo'lib, unga amaliyotda to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan ko'plab yangi normalar kiritildi.

Mehnat kodeksining 20-bobi mehnatni muhofaza qilishga bag'ishlangan. Unga mehnatni muhofaza qilishga doir barcha talablar kiritilgan. Ular orasida mehnatni muhofaza qilishga oid tadbirlar uchun ish beruvchi tomonidan ajratiladigan mablag'lar va materiallar, ishchi-xodimlarning mehnatni muhofaza qilish sohasidagi huquq va majburiyatlari, mehnatni muhofaza qilish talablariga mos keladigan sharoitlarni ta'minlash kafolatlari, majburiy tibbiy ko'riklar, ishchi-xodimlarni sut, davolash-profilaktika oziq-ovqati, gazlangan sho'r suv, shaxsiy himoya va gigiena vositalari bilan ta'minlash kabi masalalar joy olgan.

"O'zmetkombinat" Ajda Mehnat-

ni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratib kelinadi. Bu borada o'tkazilayotgan tadbirlarda asosiy e'tibor ishchi-xodimlarga munosib mehnat sharoitlari yaratish, mehnat muhofazasi madaniyatini rivojlantirish, ishlab chiqarishdagi jarohatlanish va kasb kasalliklarining oldini olish, mehnat muhofazasi borasida olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirishga, xususan ish joylarida sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan.

Yurtimizda barcha uchun munosib mehnat muhofazasini ta'minlashga qaratilgan yetarlicha mexanizmlar shakllantirilgan. Korxonalarda samarali va xavfsiz ishlash ish beruvchilarning ish joyida avvalambor mehnatni muhofaza qilishning barcha talablariga javob beradigan sharoitlar yaratishlariga ko'p narsalar bog'liq.

Ish beruvchilar ishchilarning mehnat xavfsizligi va sog'lig'i uchun javobgardir. Baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklari ko'pchilik hollarda xodimlar bilim darajasining yetarli emasligi, yong'in xavfsizligi, mehnatning xavfsiz usul va uslublariga o'qitilmagani sababli yuzaga kelmoqda.

Har bir rahbar, ishchi-xodim jarohatlar va baxtsiz hodisalarga qarshi kurashga o'z hissasini qo'shishi kerak. Barcha birdek xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi, o'zini va hamkasblarini asossiz xavf-xatlarga duchor qilmasligi, o'z huquqlarini bilishi va profilaktika choralarini amalga oshirishda faol ishtirok etishi kerak.

O'ktam O'SAROV,
mehnatni muhofaza
qilish bo'yicha davlat
texnik inspektori.

KASBIY BILIM VA KO'NIKMALARI OSHIRILDI

Joriy yilning 8-19-yanvar kunlari kombinatimizda yuk iluvchi kasbi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi. Xodimlar malakasini baholash, o'qitish va rivojlantirish boshqarmasi tomonidan tashkil etilgan mashg'ulotlarda kombinatning

bilan birgalikda amaliy mashg'ulotlarda ham ishtirok etdilar. Amaliy mashg'ulotlar Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish hamda Elektr uskunalarini ta'mirlash bo'linmasida olib borildi.

Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish

O'tgan yildan boshlab kombinatda mehnat qilayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, o'z ijodiy salohiyati va iqtidorlarini namoyish etish uchun imkoniyat yaratish maqsadida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovi bosqichma bosqich o'tkazildi.

BARCAGA YAXSHI KAYFIYAT ULASHDILAR

Kombinatning Xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish, Sanoat xavfsizligi va mehnat muhofazasi departamenti, Yagona logistika markazi, Ovqatlanish kombinati, Klining xizmati va Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi jamoalari ko'rik-tanlovning final bosqichiga chiqqan edilar.



Qizg'in bahs-munozaralarga va xushkayfiyat ulashuvchi holatlarga boy bo'lgan bu ko'rik-tanlovning hal qiluvchi bosqichida metallurglar o'z bilim va mahorati, hozirjavobligi, intellektual salohiyatini namoyish etdilar.

Finalda Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasining "Kasaba" jamoasi hakamlar hay'ati tomonidan g'olib deb e'lon qilindi. Ikkinchi o'rinni Klining xizmatining "Sparta", uchinchi o'rinni Yagona logistika markazining "Transportchilar" jamoalari egallashdi.

Ko'rik-tanlovda g'olib 14 million so'm, ikkinchi va uchinchi o'rinni egallagan jamoalar 10 va 6 million so'm bilan taqdirlanishdi.

Sardor QARSHIBOYEV.



tarkibiy bo'linmalarida mehnat qilayotgan 23 nafar ishchi ishtirok etdi.

Sanoat xavfsizligi bo'limi va mehnat muhofazasi departamentining yuk ko'tarish mexanizmlarini nazorat qilish bo'yicha yetakchi muhandisi Dilshod Shodmatov maxsus tex-

yuk ko'tarish mexanizmlarini ta'mirlash ustasi Nodirjon Jumaboyev va Elektr uskunalarini ta'mirlash bo'linmasi elektr uskunalarini ta'mirlash ustasi Ulug'bek Norqo'ziyev amaliy mashg'ulotlarni olib borishdi.

Mashg'ulotlar yakunida tinglovchilar



nologiyalar bo'yicha tinglovchilarga nazariy mashg'ulotlardan dars berdi. Mehnat muhofazasi bo'limi boshlig'i Gulmira Toshmatova tinglovchilarning yong'in xavfsizligi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha bilimlarini oshirdi.

Yuk iluvchilar nazariy mashg'ulotlar

olgan bilim va ko'nikmalari asosida test sinovidan o'tib, imtixon topshirishdi.

Bu mashg'ulotlar yuk iluvchilarning ish jarayonlarida bilim va ko'nikmalarini oshirish bilan birga kasblarining ustalari bo'lishlariga xizmat qiladi

Sheroz SHUKURALYEV.

"O'ZMETKOMBINAT" AJNING 80 YILLIGI OLDIDAN

YANGI DAVRGA MOSLASHISH OSON BO'LMAGAN

"O'zmetkombinat" AJ bu yil ishga tushganligining 80 yilligini nishonlaydi. Mamlakatimizning yetakchi sanoat korxonalaridan biri bo'lgan kombinatimiz o'tgan yillarda og'ir va sharafli yo'lni bosib o'tdi. 80 yilda faqat tekisliklardan emas, ba'zan o'nqir va cho'nqir yo'llardan ham o'tishga to'g'ri keldi.

KO'RSATKICHLAR PASAYA BORDI

1988-1991-yillarda korxonamizda ko'rsatkichlar pasaya bordi. 1991-yilda 956,7 ming tonna po'lat eritilgan bo'lsa, 1993-yilda 577 ming, 1995-yilga kelib uning hajmi 350 ming tonnaga tushib qoldi.

Shunday og'ir kunlarda zavod rahbariyati Anatoliy Mixaylovich boshchiligida tinmay izlandilar, bunday holatdan chiqib ketish yo'llarini qidir-dilar. Ayniqsa, zavodga asosiy xomashyo bo'lmish temir-tersak parchalari, elektr pechlar uchun grafitli elektrod, cho'yan, pechlarni ta'mirlash uchun o'tga chidamli g'ishtlar, metall eritmasiga qo'shiladigan ferrosilitsiy, ferromarganes kabilarni chetdan olib kelish yanada qiyinlashib ketdi.

Ana shunday paytda 1992-yil may oyida Respublika Vazirlar Mahkamasi qora metall parchalarini tayyorlash, jo'natish, qayta ishlashni tashkil etuvchi tarmoqni O'zbekiston metallurgiya korxonasi tarkibiga o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qaror asosida korxonada yangi bir jamoa - xo'jalik hisobidagi "Ikkilamchiqorametal" boshqarmasi tashkil qilindi. Natijada temir-tersak parchalarini Respublika hududida to'plash, qayta ishlab o'z vaqtda yuklab, zavodga jo'natish borasidagi ishlar bir muncha tartibga solindi, asta-sekinlik bilan bo'lsada uning miqdori ko'paya boshladi.

MUAMMOLAR, JUMBOQLAR...

Mustaqillikning birinchi yillari o'zaro aloqalarning izdan chiqishi tufayli chetdan olib kelinadigan xomashyo, asbob-uskuna, tovarlarni olib kelishda katta muammo yuzaga keldi. Ularni sotib olish uchun valyuta darkor edi.

Ammo u paytda valyutani ishlab topish uchun eksportbop mahsulot ishlab chiqarish va uni jahon bozoriga olib chiqib sotish kerak edi. Bu bozor iqtisodiyotining asosiy talablariga ko'pgina korxonalar, shu jumladan zavod hali tayyor emasdi.

Xullas muammolar, jumboqlar ko'p edi. Valyuta tanqisligini xo'jalik aloqalarini mahsulot ayiraboshlash asosida yechish yo'li bilan hal qilishga to'g'ri keldi. Masalan, Kuznesk metallurgiya kombinati bilan o'zimizda elektrpechlardan olinayotgan quymalarni cho'yanga almashtirish, shuningdek Yaponiya, Isroil davlatlaridan elektrod, Qarag'andadan sirli idishlar ishlab chiqarish uchun dekorativ tunikasi, Mariupoldan chokli quvurlar ishlab chiqarish uchun shtrips (maxsus qalin tunika) mahsulotlari olinib, ishlab chiqarishning to'xtab qolishiga yo'l qo'yilmadi.

SEXLARDA RO'ZG'ORBOP BUYUMLAR ISHLAB CHIQRILDI

Bu davrlarda korxonaning muntazam ishlab turishini ta'minlash, ishlaganda ham foyda bilan ishlash omillaridan biri - yanada tejamkorlikni oshirish, xalq istemol mollari turlarini oshirib, sifatini yaxshilash kerak edi. Shu maqsadda 1992-yil fevralida zavodda "Energoresurslarni tejamkorlik bilan ishlatish" loyihasi tasdiqlandi. Bu loyihaning bajarilishi qattiq nazorat ostiga olindi.

Barcha sexlar 1992-1995-yillarda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'yicha loyihalar tuzib, uni amalga oshirish choralarini ko'ra boshladilar. Masalan, elektrda po'lat eritish va 1-navli prokat sexlarida qurilish uchun presslangan g'isht va payvandlash uchun ishlatiladigan karbid, metallurgiya uskunalarni ta'mirlash sexida metall panjaralar, metallan yasalgan darvoza, eshiklar, 1-mexanika ta'mirlash sexida gaz plitalar uchun

cho'yan plitalar, 2-mexanika-ta'mirlash sexi televizorlarni qo'yish uchun taglik, temir cho'kki (kirka), 2-navli prokat sexida mix tayyorlash yo'lga qo'yildi. Hattoki marten sexi arendaga yer olib, sholi yetishtirish, energetika sexlari sun'iy havzalarda baliqchilik bilan shug'ullana boshladi.

Bu ko'rilayotgan barcha harakatlar, korxonaning ishlab turishini ta'minlash, kadrlar porakandaligiga yo'l qo'ymaslik, ishsizlikning oldini olish, ishchilarga normal hayot tarzini yaratishga qaratilgandi. Ayniqsa, shu maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardan biri 1992-yilning aprel oyida xo'jalik hisobidagi qurilish-yilning aprel oyida tresti tashkil etilishidir. Trest endi bosh pudratchi vazifasida zavod-dagi barcha qurilishlarga bosh-qosh bo'lib, deyarli hamma masalalarni o'zi hal qilishi kerak edi. O'tgan davrlar ichida bajarilgan barcha bunyodkorlik ishlari ularning fidokorona mehnatlari hosilidir.

ISHCHI-XODIMLARGA G'AMXO'RLIK

Korxonada uchun eng og'ir yillarda ham ishchi-xodimlarning turmush sharoitlarini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi.

Metallurglarning salomatliklarini mustahkamlashga katta ahamiyat berildi. Sanatoriy-profilaktoriyga, dam olish uylariga bepul yo'llanmalar berildi. Urush, mehnat faxriylariga, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, nochor, serfarzand oilalarga moddiy yordam ko'rsatib borildi.



1991-1992-yillar davomida metallurgiya korxonasi 1 gektar yerga issiqxonasi, suzish havzasiga ega bo'lgan bolalar bog'chasi, 11 ta turar-joy, savdo do'koni va qahvaxona qurildi. Keyinroq "Metallurg" stadioni rekonstruksiya qilinib, suzish havzasi foydalanishga topshirildi. Metallurglar madaniyat Saroyi qayta jihozlandi.

1992-yil 7-mart kuni korxonaning "Metallurg minbari" ko'p nuxxali gazetasining birinchi soni chop etildi, ko'p o'tmay tarix muzeyi tiklandi.

Zavod eng og'ir damlarni mardonavorlik bilan yengib o'tishni boshladi.



MEHNATGA YARASHA RAG'BAT

1994-yili korxonamiz 50 yillik yubileyini o'tkazdi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan zavod "Faxriy yorliq" bilan taqdirlandi. Bir guruh metallurglar Vatanimizning yuksak mukofotlari bilan



taqdirlandi.

Respublika tog'-kon, oltin saralash, sement ishlab chiqarish korxonalarini uchun po'lat zoldirlar chetdan olib kelinardi. Buning uchun anchagina valyuta sarflanardi. Bu masalani hal qilish uchun Respublika rahbariyati korxonamiz oldiga po'lat soqqalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalasini qo'ydi. Topshiriq juda qisqa vaqt ichida loyihadagi 2 yil o'rniga 1,5 yilda amalga oshirilib, 1994-yilning may oyida po'lat zoldirlar prokatlash stanida dastlabki mahsulot ishlab chiqarildi.

Metallurglar bu sharafli vazifani a'lo darajada bajarganliklari uchun 1994-yil 16-noyabrda Respublika Prezidentining Farmoni bilan kombinatning eng ilg'or ishchilari munosib taqdirlandilar.

Korxonada chetdan olib kelinadigan xomashyolarni o'zimizda topish, ishlab chiqarish tinimsiz davom etardi. Mutaxassislar, ixtirochilarning sa'y-harakatlari bilan, maxsus aralashma loyi, kvarsit, shlak uchun idishlar, o'tga chidamli g'ishtlarning ba'zilarini o'zimizda tayyorlana boshlandi. Ishlab chiqarilayotgan po'lat narxini arzonlashtirish maqsadida ilg'orlari qimmatga sotib olinayotgan ikkilamchi alyuminiy o'rniga temir-tersak parchalari ichidan saralanib olinadigan alyuminiy parchalaridan foydalana boshlandi. Po'lat quyish uchun ishlatiladigan mis kristallizatorlari endi Rossiyada emas, balki o'zimizda Olmaliq kon zavodi misidan tayyorlanadigan bo'ldi.

Davr o'zgarib bozor iqtisodiga o'tish jadallashib, oldingi iqtisodiy tuzum asoslari o'z o'rnini yangi iqtisodiy tuzim asoslariga bo'shatib berishga majbur edi. Bekobodlik metallurglar zamon talablariga moslashib, yana taraqqiyotning oyidin yo'lga mana shunday dadil qadam qo'yishgan edi.

KORRUPSIYA

KORRUPSIYAGA BEFARQ BO'LMASLIGIMIZ KERAK

Bugungi kunda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish butun dunyoda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Korrupsiyaning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo'lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog'i rivojlanmaydi".

Haqiqatan ham korrupsiya har qanday davlat va jamiyat rivojiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi xavfli omil, barcha mamlakatlarga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hodisadir. Zero, bu omil tufayli davlatning rivojlanishi sekinlashadi, hukumat tizimi ishdan chiqadi. Qonun ustuvorligiga jiddiy ziyon yetadi. Shu bilan birga, uning ta'siri ostida fuqarolarning adolatga, haqiqatga va davlat idoralari-ga ishonchi yo'qoladi.

Korrupsiyaga aralashgan, bu jirkanch illatga qo'l urgan odam uchun ulug' narsalar, mo'tabar tuyg'ularning qadri yo'qoladi. Bunday odamlar hayotda hamma narsani sotib olish va sotish mumkin, deb o'ylaydi. Bunday kimsalarga hayot uchun aziz sanaladigan hech narsani ishonib bo'lmaydi. Chunki ular ota-onasi, qarindosh-urug'lari, yor-u birodarlari, mahalla-ko'yning yuzini yerga qaratishdan, boshini egishdan uyalmaydilar.

Korrupsiyaga aloqador odam qonunni buzishdan tashqari, o'zining kimligini, iymon-e'tiqodi, ma'naviyati qay darajada ekanini oshkor qiladi. Bunday odam nafaqat moliyaviy ziyon-zahmat yetkazadi, balki davlatni, demokratiyani behurmat qilib, obro'sini to'kadi,

unga non-tuz berib katta qilgan, ilmu hunar, obro' va mansab bergan el-yurtning yuziga oyoq qo'yadi.

Ular harom-xarish yo'l bilan topganlarini oilasida o'z farzandlariga harom luqma yegizayotganini tushunmaydi. Bunday oilada o'sgan o'g'il-qizlar ertaga undan battar ochofat, yulg'ich, poraxo'r bo'lib o'sadi va bir kun albatta qopqonga tushib, umri panjara ortida o'tadi. Mana shu haqiqatni kombinatimizda ishlayotgan korrupsiyaga moyil shaxslar ham yaxshi bilib olishlari zarur. Ular bugun qilayotgan qing'irliklarimni hech kim bilmaydi, sezmaydi, deb o'ylaydilar. Vaholanki, bugun odamlarning ko'zi ochilmoq-

da. Mansabdor shaxs biror qing'irliklar qilsa atrofida yaxshi bilishadi. Oriyatli, vijdonli insonlar ular haqda tegishli idoralarga xabar berib qo'yishni o'zlarining vijdoniy burchi, pokiza yashashga intilgan xalq oldidagi qarzi deb bilmoqdalar.

Davlatimiz korrupsiyaning oldini olish va uning ildizlariga barham berish maqsadida ko'pgina tadbirlarni amalga oshirmoqda. Mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish, fosh etish va unga qarshi kurashish borasida tashkiliy-huquqiy choralar amalga oshirilib, korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy mexanizmi yaratilgan. Xususan, 2017-yil 4-yanvardan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni kuchga kirgani bu boradagi muhim qadam bo'ldi.

Biroq "Korrupsiya haqida qonun qabul qilindi, qolgani huquq-tartibot idoralarning ishi", deb o'ylash, xotirjamlikka berilish katta xato bo'ladi. Korrupsiya balosidan qutu-

lish, islohotlarni uning changalidan ozod etish haqida o'ylashimiz, buning zaruratini yuragimizdan o'tkazishimiz, unga qarshi qat'iy kurashishimiz kerak. Bu kurash kundalik hayotimizdagi oddiy holatlardan boshlanadi. Korrupsiya holatining katta-yu kichikligiga qaramay bunday holatlarga murosa qilmasligimiz shart.

To'g'ri ishlab, halol yashash saodatini yoshlikdan o'rgangan odamning umri halovatda bo'ladi. Adolatsizlik, qonunga hurmatsizlik, kasbu amalga, ishonchga xiyonat qilib bo'lmashini o'qib-uqqan, poraxo'rlik va korrupsiyaga, suiiste'molchilikka qarshi o'zida immunitet hosil qilganlar xalqning hurmat va e'tiborini topadi. Halol mehnat bilan topilmagan boylik totli bo'lmashini, hech kimga buyurmasligini, yaxshilik emas, yomonlik va kulfat keltirishini tushunadi.

Tanish-bilishchilikdan davlat va jamiyat manfaatlariga ziyon yetmasligi, qonunlarga, insonning qadr-qimmatiga rahna solinmasligi kerak. O'zining g'arazli maqsadi uchun har qanday tubanlikdan tap tortmaydigan mas'ul shaxs davlatga, xalqqa katta ziyon yetkazadi. Bunday zararkunandalarga oramizda joy bo'lmashligi kerak. Ularning joyi qamoqda bo'lishi lozim.

Agar jamiyat rivojlanishini, turli illatlarning barham topishini istasak, avvalo o'zimizni, atrofimizdagilarni bundan qaytarishimiz, bu harom yo'ldan qaytmaganlarga qarshi kurashishni davrning o'zi talab qilmoqda.

Qalqon DILSHODOV.



"O'RGANGAN KO'NGIL O'RTANSA QO'YMAS"

SUD ZALIDAN

Insoniyat boshiga turli balolarni solib, oilalarni va jamiyatni tanazzulga olib boradigan illatlardan biri giyohvandlikdir. Giyohvandlik oqibatida minglab norasida go'daklar mayib-majruh tug'ilmoqda, oilalarda ajrashishlar ko'paymoqda va dunyoda millionlab odamlar hayotdan bevaqt ko'z yummoqda. Eng afsuslanarli jihati shundaki bu jirkanch narsaga muhtalo bo'lgan kimsalarning tuzalishi juda ham qiyindir.

Jahonda sodir etilayotgan jinoyatlarning 57 foizi giyohvandlar hissasiga to'g'ri keladi. Shu boisdan, butun jahonda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham giyohvandlikka qarshi qattiq qurash olib boriladi.

Biz, ayniqsa, yoshlarni bu asr vabosidan ehtiyot qilishimiz kerak. Giyohvandlar bizdan olisda ular farzandlarimizga ta'sir o'tkazolmaydi, deb xotirjamlikka berilish yaramaydi. Zero ular oramizda ham uchrab turadi. Giyohvandlarning aksariyati piyanistalar kabi hamtovoqlar bilan kayf qilishni yaxshi ko'rishadi. Shuningdek, giyohvandlik vositalarini sotuvchilar ham yoshlar orasidan mijozlar ko'paytirishga harakat qiladilar.

Yaqinda sud majlisida B. Yusupov (Ism va sharifi o'zgartirilgan) jinoiy ishini ko'rib chiqdik. Muqaddam uch marta sudlangan 33 yoshli hamshahrimiz bo'lgan bu yigit 5 nafar farzandning otasi. Farzandlariga ta'lim-tarbiya berish o'rniga uning o'zi tarbiyaga muhtoj ekan.

Axloq tuzatish ishlari jazosini o'tab kelayotgan



bo'lishiga qaramay u yana jinoyatga qo'l uradi. B. Yusupov giyohvandlik vositasini sotib foyda olmoqchi bo'ladi. O'tgan yilning 9-iyun kuni dastlabki tergov davrida kimligini aniqlashning imkoni bo'lmagan shaxsdan 3,8 gramm "gashish" giyohvandlik vositasini sotib oladi. So'ng uni sotish uchun mijoz izlay boshlaydi.

Oradan uch kun o'tib soat taxminan 12.00 larda Bekobod shahar Tibbiyot birlashmasining markaziy shahar shifoxonasi yaqinidagi somsaxonada o'zi qidirgan kishiga duch keladi. O'zaro suhbat davomida oldin tanish bo'lmagan yigitga o'zidagi "gashish" giyohvandlik vositasini 1 200 000 so'mga sotishini aytadi. O'z navbatida bu yigit undan telefon raqamini olib, pul topsa qo'ng'iroq qilaman, deydi. Shu kuni soat 17.00 dan keyin xaridor unga qo'ng'iroq qilib, giyohvandlik vositasini olib kelishni so'raydi. B. Yusupov 4 dona yumaloq chars giyohvandlik vositasini olib, yana o'sha somsaxonaning yonida mijoz bilan uchra-shadi. Undan pullarni olib tez tibbiy yordam



markazi tomonidagi darvozaga yaqinlashganida, uni huquqni muhofaza qiluvchi idora xodimlari ushlashadi.

Sudlanuvchi sudda aybiga to'liq iqror bo'ldi. U qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, qilmishidan qattiq afsusda ekanini bildirdi.

Sud hay'ati sudlanuvchiga O'zbekiston Respublikasi JKning 60-moddasi tartibida jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudining 2022-yil 28-apreldagi hukmi bilan tayinlangan jazoning o'tolmay qolgan qismini qisman qo'shish yo'li bilan uzil-kesil o'tash uchun 7 yil 6 oy ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

Hukmda jazo qattiq tartibli koloniyalarda o'tishi hamda O'zbekiston Respublikasi JKning 96-moddasiga asosan, sudlanuvchi jazoni o'tash jarayonida giyohvandlikka qarshi tibbiy yo'sinda majburiy davolanishi belgilandi.

**Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Bekobod shahar sudi sud'yasi.**



MEHNAT SHAROITLARINI KIM TA'MINLAYDI?

Yangi korxonamda ish bo'yicha zarur bo'ladigan ba'zi asbob-uskunalar nosoz va sifatsiz ekan. Ularni kim sozlashi yoki almashtirishi kerak. Umuman olganda ish bajarilishi uchun zarur shart-sharoitlarni kim ta'minlaydi?

S. SHUKUROV.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksining 276-moddasiga binoan ish beruvchi mehnat normalarining bajarilishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi shart. Bunday shart-sharoitlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- binolar, inshootlar, mashi-

nalar, texnologik jihozlar va boshqa asbob-uskunalarining soz holatda bo'lishi;

- ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan texnik hujjatlar va boshqa zarur hujjatlar bilan o'z vaqtida ta'minlash;

- mehnat shartnomasida shartlashilgan ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan materiallar, asboblari, boshqa vositalar va buyumlarning lozim darajada sifatlari bo'lishi, ularning xodimga o'z vaqtida taqdim etilishi;

- mehnat muhofazasi va ishlab chiqarish xavfsizligi talablariga javob beradigan mehnat shart-sharoitlari.

TO'SQINLIK UCHUN JAVOBGARLIK BORMI?

Yaqinda tibbiy ko'rikdan o'tish chog'ida bir kishi shifokorning ishiga xalaqit qilib, u bilan aytishib qoldi. Bu navbatda turganlarning ham vaqtini olishga sabab bo'ldi. Mana shunday kishilar uchun qonunchilikda biror chora ko'rsatilganmi?

Sh. SOLIJONOVA.

Qonunchilikka ko'ra, tibbiyot xodimining qonuniy tibbiy faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki shu maqsadda tibbiyot xodimiga qonunga xilof ravishda har qanday shaklda ta'sir o'tkazish javobgarlikka sabab bo'ladi.

Javobgar fuqarolarga BHMning 5 baravaridan 7 baravarigacha jarima solinadi. Mansabdor shaxslarga esa BHMning 7 baravaridan 10 baravarigacha jarima solinadi yoki



15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olinishi mumkin.

Bundan tashqari, qasddan yengil tan jarohati yetkazish, bu harakat sog'liqning qisqa muddat yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatini uncha ko'p davom etmaydigan turg'un tarzda yo'qotishga olib kelmagan bo'lsa, BHMning 2 baravaridan 4 baravarigacha miqdorda jarima solinadi.

TA'TILNI QANCHA MUDDATGACHA OLISH MUMKIN?

Bu yil tez hal qilishim zarur bo'lgan ishlarim ko'payib ketdi. Ishxonamdan ish haqi saqlanmaydigan ta'til olmoqchiman. Bu ta'tilni qancha muddatgacha olish mumkin?

Sh. VOHIDOV.

Ish haqi saqlanmaydigan ta'til deganda xodimning ish o'rnini saqlanib qolgan holda haq to'lanmaydigan ta'til tushuniladi. Mehnat kodeksining 241-moddasiga ko'ra xodimning yozma arizasiga ko'ra unga ish haqi saqlanmaydigan ta'til berilishi mumkin. Uning davomiyligi xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga ko'ra belgilanadi. Lekin u ish haqi saqlanmaydigan oxirgi ta'til berilgan kundan e'tiboran kalendar yil davomida uzluksiz yoki jamlangan holda uch oydan oshmasligi kerak.

Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, karantin choralari amalga oshirilayotgan, favqulodda holat



joriy etilgan davrda va butun aholining yoki uning bir qismining hayotiga yoxud normal yashash sharoitlariga tahdid soluvchi boshqa hollarda xodimning yozma arizasiga ko'ra ish haqi saqlanmaydigan ta'tilning uzluksiz yoki jamlangan davomiyligi ko'paytirilishi, biroq ko'pi bilan olti oygacha ko'paytirilishi mumkin.



ZARARNI MENGA KIM QOPLAB BERADI?

Men "Neksiya" mashinamda harakatlanib borayotganimda daryodagi ko'prik ustida tirkama sudrab sekin ketayotgan traktorni quvib o'tdim. Quvib o'tish vaqtida traktor mashinamni qisib zarar yetkazdi. Bu zararni menga kim qoplab beradi?

D. RASHIDOV.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan Yo'l harakati qoidalari tasdiqlangan. Uning 86-bandiga asosan tartibga solingan chorrahalarda, tartibga solinmaydigan chorrahalarda asosiy hisoblanmaydigan yo'llarda harakatlanishda, piyodalar o'tish joylarida, temir yo'l kesishmalarida va ulargacha 100 metrdan kam masofa qolganda, quvib yoki aylanib o'tayotgan transport vositalarini, tepalikning oxirida va yo'lning ko'rinishi cheklangan joylarida, 3.20 va 3.22 yo'l belgilari ta'sir

oralig'ida quvib o'tish taqiqlanadi.

Shuningdek, ko'priklarda, yo'l o'tkazgichlarda, estakadalarda va ularning ostida ham quvib o'tish mumkin emas.

Mazkur asoga ko'ra siz avtomobilni ko'prik ustida quvib o'tgan bo'lsangiz, siz ta'qiqlangan joyda quvib o'tib Yo'l harakati qoidalari 86-bandini buzgan hisoblanasiz.

Va bunday vaziyatda qoidabuzarlik siz tomoningizdan amalga oshirilgani uchun zarar qoplab berilmaydi.

KAFILLIKDAN VOZ KECHSA BO'LADIMI?

Hamkasbim kredit olmoqchi. U mendan kafil bo'lishni iltimos qildi. Kredit olganlarga kafil bo'lganlar uchun ham majburiyatlar bormi?

B. TO'RAQULOV.

Ko'pchilik kreditga kafillik shartnomasini tuzgach, keyinroq undan voz kechish mumkin va oson deb o'ylaydi. Lekin aslida bunday emas. Kafillik qarzdor majburiyatlari bo'yicha kafilda ham majburiyat vujudga keltiradi. Qonunchilikka ko'ra shartnomani bir tomonlama bekor qilish,



ya'ni kafillikdan bir tomonlama voz kechishga yo'l qo'yilmaydi.

Masalan, kafil shartnoma tuzganidan keyin ishidan ayrilsa, kasal bo'lib qolsa, qarzdor (kredit olgan tanishi) bilan janjallashib qolsa ham kafillik o'z kuchida qolaveradi. Kafillik shartnomasini o'zgartirish yoki bekor qilish uchun bank bilan kelishishi kerak bo'ladi, bank esa hech qachon o'z ta'minoti zarariga harakat qilmaydi. Kafillik qachonki kredit qarzi to'liq to'langanda, qarz majburiyati boshqa shaxsga o'tkazilganda yoki kafillik muddati o'tib bo'lgandan keyin tugaydi.

Yana bir yo'li kafilni almashtirishni so'rab bankka murojaat qilish, agar tomonlar kelishsa kafilni boshqa shaxsga almashtirish mumkin.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

QISH MAVSUMIDA IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASH

Immun tizim – organizmdagi eng nozik jaryondir. Immunitet har qanday holatda, dori-darmon qabul qilsak ham, qilmasak ham kasalliklar bilan kurashaveradi.

Qish mavsumida immunitetni mustahkamlashda ko'pchiligimiz buning uchun mablag'ni va vaqtni ayamadan dorixonalardan behuda dori-larni sotib olamiz. Yaqinlarimizni asrash maqsadida, "Mo'jizaviy tabletka"lar olib, har xil angina,

gripp, bronxit va boshqa kasalliklardan himoyalash uchun yelib yuguramiz. Farmasevtika sohasidagi yutuqlarning o'sishiga qaramasdan ikkilanmasdan aytish mumkinki, immunitetni oshirish uchun "mo'jizaviy dori" yo'q. Xafa bo'lishga shoshilmang. Mustahkam sog'liq uchun dorixonaga chopish shart emas. Tabiiy mahsulotlar orqali organizmimizni mustahkamlash immunitetni himoyalashning yaxshi usullaridan hisoblanadi.

ENG FOYDALI MAHSULOTLAR

MUTAXASSISLAR IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA YORDAM BERADIGAN MAHSULOTLAR RO'YXATINI TAYYORLASHDI. ZANJABIL, SEDANA YOG'I, SARIMSOQ, BALIQ, SHOKOLAD, LIMON, ASAL, KEFIR, QOVOQNI ME'YORIDA MUNTAZAM ISTE'MOL QILADIGANLARNING IMMUNITETLARI MUSTAHKAM BO'LAR EKAN.



ZANJABIL

"Jannat ildizi" deb hisoblanuvchi zanjabil antibakterial, shamollashga qarshi, antimikrob, antiseptik, bakteritsid xususiyatlarga ega. Zanjabil – doim hatto qishda va yozda uyimizda bo'lishi shart bo'lgan dorivor ildizdir. Bu xushbo'y ildiz S va V vitaminlarga boy bo'lib juda foydalidir. Tarkibida retinol bo'lib inson organizmidagi yangi hujayralarning tiklanishini ta'minlaydi. Asal bilan zanjabilning aralashmasi yana ham foydali xususiyatlarni oshiradi.

SEDANA YOG'I

Zamonaviy tekshiruvlar ko'rsatadiki, qora sedana oshqozon-ichak traktini normallashtiradi, immun-tizimni faollashtiradi. Sedana yog'i ko'p turdagi kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalarni yo'qotadi, qondagi xolesterin miqdorini kamaytiradi hamda o't haydovchi vosita hisoblanadi. Yog'ni profilaktika maqsadida va umumiy mustahkamlovchi vosita sifatida qo'llash mumkin. Agar kun davomida 1 choy qoshiqdan iste'mol qilinsa, moddalar almashinuvini normallashtiradi va organizmning himoya kuchini oshiradi. Bir muborak hadisda: "Qora dona o'limgan boshqa har bir dardga davodir", deyiladi.

SARIMSOQ

Bu achchiq taomlarni sevib iste'mol qiluvchilarning eng kerakli mahsuloti hisoblanadi. Sarimsoq o'rta asrlarda hatto vaboda ham qo'llanilgan. Bugungi kunda, xayriyatki, o'limga olib keladigan kasalliklar kamroq darajada tahdid qilmoqda, ammo sarimsoq hanzugacha foydali profilaktika hisoblanadi. Immunitet tizimini mustahkamlash uchun ushbu mahsulotning yangisini iste'mol qilish foydalidir.

ASAL

Asal ko'p shirinlik iste'mol qila olmaydiganlar uchun ayni muddao. Mazali ta'mga qo'shimcha ravishda, bu noziklik turli xil shifobaxsh xususiyatlarga ham ega: asal yaralarni davolaydi, asab va immunitet tizimini yaxshi holatda saqlaydi. Shamollashda tez tiklanishga yordam beradi va agar har kuni bir qoshiq asal iste'mol qilish qoidaga aylansa, kasalliklar kamroq bezovta qiladi.

BALIQ

Baliq omega-3 yog' kislotalarining manbai bo'lib, immunitetni mustahkamlash uchun organizmda yetarlicha bo'lmaydi. Bundan tashqari, inson organizmi rux ishlab chiqarishga qodir emas va shuning uchun ushbu elementni o'z ichiga olgan oziq-ovqatlar, jumladan, baliqni ko'proq iste'mol qilish kerak. Gap shundaki, rux immunitet hujayralarining tuzilishida bevosita ishtirok etadi.

SHOKOLAD

Ma'lum bo'lishicha, tarkibida yuqori foizli kakao bo'lgan haqiqiy qora shokolad nafaqat organizmdagi faollikni tiklashga yordam beradi,

balki uni zararli bakteriyalardan himoya ham qiladi. Sof shakldagi kakao immunitet tizimini rag'batlantiradi, unga viruslar tushishiga yo'l qo'ymaydi. Muammo shundaki, qo'shimcha va bo'yoqlarsiz haqiqiy kakaoni iste'mol qilish deyarli mumkin emas, u yoqimsiz achchiq ta'mga ega. Shuning uchun qora shokolad eng yaxshi yechimdir.

LIMON

Ushbu sitrus mevaning foydali xususiyatlari ko'pchilikka ma'lum. Limon C vitaminining yuqori konsentratsiyasini o'z ichiga oladi, ammo u faqat yangi namunalar va sharbatlarda saqlanadi va issiqlik bilan ishlov berish yoki havo bilan uzoq vaqt aloqa qilish natijasida yo'qoladi. Shuning uchun limon sharbatini suvga qo'shib, darhol ichish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, limonli choydan voz kechish lozim, chunki sitrusning shifobaxsh xususiyatlari qaynoq suvda yo'qoladi.

KEFIR

Kefir, shubhasiz, immunitetni mustahkamlash uchun juda kutilmagan vosita bo'lib tuyulishi mumkin, chunki u ko'proq parhez paytida ichiladi, ammo shamollashdan qochishga yordam beradi. Kefir ovqat hazm qilishni yaxshilash va ichaklarni mikroblarning kirib kelishidan himoya qilish qobiliyatiga ega. Kalsiy va D vitamini suyaklarni mustahkamlaydi va qon hosil bo'lishiga yordam beradi, qondagi himoya antitollalarining sintezini rag'batlantiradi va viruslar bilan kurashadi.

QOVOQ

Qovoq tarkibida beta-karotin mavjud bo'lib, u organizm hujayralari o'rtasida to'g'ri aloqa o'rnatish va saqlashga yordam beradi. Bu immunitet tizimining normal ishlashining asosiy kafolatidir. Shuningdek, qovoq kabi har qanday boshqa to'q sariq rangli sabzavotlarni iste'mol qilish tavsiya etiladi va sabzavotning rangi qanchalik yorqin bo'lsa, unda beta-karotin ko'proq bo'ladi.

INSON EHTIYOJ SEZADIGAN VITAMINLAR

ODAM ORGANIZMI, AYNIQSA, SOVUQ KUNLARDA ALOHIDA G'AMXO'RLIKKA MUHTOJ BO'LADI. VIRUSLAR, SHAMOLLASH VA SOVUQ URISHI FONIDA KUZATILADIGAN IMMUNITETNING SUSAYISHI TURLI SALBIY OQIBATLARGA OLIB KELISHI MUMKIN. BUNDA BIRINCHI BO'LIB, TANANING UMUMIY TONUSI YO'QOLADI. KEYIN ESA SHILLIQ TO'QIMALAR, TERI, SOCH VA SUYAKLARDA MUAMMO KUZATILADI. BUNDA VAQTDA QANDAY VITAMINLARGA EHTIYOJ YUQORI BO'LADI. BU SAVOLGA MUTAXASSISLARNING TAVSIYALARINI E'TIBORINGIZGA HAVOLA QILAMIZ



C vitamini. Qishda ushbu vitaminni sitrus va quritilgan mevalar, mavsumga xos barra sabzavotlardan olsa bo'ladi. Parhezshunoslar, ayniqsa, tarkibida C vitamin bisyor bo'lgan tuzlangan karamga e'tibor qaratishni tavsiya qiladi.

D guruhi vitaminlari. "Quyoshli vitamin" ham deyiladigan D guruhi vitaminlarini faqatgina quyosh nuri orqali qabul qilish mumkin

deb o'ylash xato. D vitaminining yana bir muhim manbai oziq-ovqat, asosan, go'sht manbalari: baliq jigari, yog'li baliq va baliq yog'i, tuxum sarig'i, yuqori darajali yog'li sut mahsulotlaridir. Ammo ularni belgilangan miqdordan ko'p iste'mol qilish ortiqcha vaznga sabab bo'lishini yodda saqlash zarur.



Oqsil. Nutritsologlar ratsionda oqsilga boy bo'lgan taomlar bisyor bo'lishi, uglevodlarni esa qisqartirish kerakligini ta'kidlaydi. Shunda organizmda himoya funksiyasining faollashuvi va vitaminlarning singishi oson bo'ladi.

Insonni semirtirsada tanani quvvat bilan ta'minlaydigan uglevodlarning ratsionda bo'lishi kerak va muhim. Biroq boshqa tomondan ularni cheklash sog'lom bo'lish uchun samarali usul.

“METALLURG”: MAVSUM SARHISOBI VA TARADDUDI

Superligada 2023-yilgi futbol mavsumini ko'pchilik turlicha talqin etmoqda. Kimdir chempionat murosasiz, qiziqarli kurashlarga boy bo'ldi, deyapti. Buni chempionlik uchun kurashning oxirgi turgacha hal bo'lmaganligi yoki Superligada jon saqlash uchun kurashgan jamoalarning har bir o'yinni qizitib berganligi bilan isbotlashmoqda. Ba'zi mutaxassislarining nazdida esa shunchaki aksariyat klublarning kuchi tenglashgan, shuning evaziga keskin raqobat kuzatildi.

“Metallurg” o'tgan mavsumda ikki xil taassurot qoldirdi. Birinchi davrada jamoamiz kuchsizroq ko'rindi. Biroq ikkinchi davrada “Metallurg” o'z o'yinlari bilan muxlislarini ko'p marta xursand qildi.



2023-yilgi mavsum “Metallurg” muxlisari uchun oson kechmadi. Chempionatni qatorasiga ikkita yirik mag'lubiyat bilan boshlanishi mutasaddilarimizni ham, muxlisarlarni ham o'yantirib qo'ygandi. Tezda tegishli choralar ko'rildi. Jamoa boshqaruvida islohotlar amalga oshirildi.

MAVSUM XOTIRJAM YAKUNLANDI

Yangi bosh murabbiyning jamoaga ko'nikib ketishi uchun vaqt kerak bo'ldi. Klub ichidagi muhit mo'tadil ko'rinish olgach, transfer siyosatida yo'l qo'yilgan nuqsonlar to'g'rilashga kirishildi.

Ikkinchi davradan “Metallurg” karvoni ravon harakatlana boshladi. Ligada eng ko'p gol o'tkazayotgan jamoaning himoya qo'rg'oni mustahkamlandi.

Jamoa musobaqa jadvalida o'ntalikka kirib oldi va mavsumni xotirjam ruhda yakunladi. 2022-yilgi o'rnimizni band

etdik. Mavsum oxirida murabbiylar ishidan qoniqish hosil qilgan klub mutasaddilari chernogoriyalik murabbiy bilan shartnomani 2026-yilgacha uzaytirishga qaror qildi. Jamoa oldiga yangi vazifalar, marralar qo'yildi.

“Metallurg” 2023-yilgi mavsumda 26 uchrashuvning 8 tasida g'alaba qozondi, 6 ta o'yinda durangga imzo chekdi. 12 ta o'yinda imkoniyat boy berildi. Kiritilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqi 26:35, 30 ochko jamg'arildi.

JAMOA TO'PURARLARI



qo'shilgan 2020-yilgi “bombardirimiz” Shahzodbek Ubaydullayev o'z hisobiga to'rtta gol yozdi. Jamoamizning universal o'yinchilaridan biri Husniddin G'ofurov ham 4 marta muvaffaqiyat qozondi. U 2 ta penaltini aniq amalga oshirganligini ham qayd etish lozim. Birinchi davradan keyin “Olimpik”-ka ijaraga berilgan Ibrohim Ibragimov raqiblar darvozasiga 2 ta gol urdi. Shuningdek, U20 Jahon chempionatida o'z ismi sharifini tarixga muhrlab kelgan bekobodlik iste'dodli hujumchimiz Shahzodjon Ne'matjonov ham 2 marta muvaffaqiyat qozondi. Yoshlar terma jamoamiz yig'inlari, Mundial bilan band bo'lgan, Jahon chempionatidan jarohat bilan qaytgan Shahzodjon 2 ta golni 7 ta uchrashuvda urdi. Agarda mavsumni asosiy tarkibimizda to'liq o'tkazganida Sh.Ne'matjonovning foydasi bundanda salmoqli va barakali bo'lishi mumkin edi.

Jamoaning qolgan gollari 7 nafar futbolchimiz hisobiga yozildi.

Superligada “Metallurg” raqiblari darvozasiga 26 ta gol kiritdi. Mavsum davomida 12 nafar o'yinchimiz o'z ismi sharifini stadion tablolariga yozdirib qo'ydi. Jamoamiz to'purari Zabixillo O'rinboyev bo'ldi. U raqiblar darvozasini 7 marta ishg'ol etdi. Gollaridan birini 11 metrlik jarima zarbasidan kiritdi.

Ikkinchi davradan jamoamizga kelib

O'RINBOSARLARDA O'SISH BOR

Asosiy jamoamizga yaqin o'rinbosarlarni yetishtirib beruvchi U-21 hamda U-19 chempionatlarida qatnashgan yoshlarimizning natijalari kishini xursand etadi. “Metallurg” futbol klubi qoshida “Real” (Madrid) akademiya bilan hamkorlik qiluvchi “El Golazo” futbol akademiasining ochilishi o'z samarasini bera boshladi. Futbol akademiasining birinchi qaldirg'ochlari “Metallurg U19” jamoasi chempion bo'ldi.

“Metallurg U-21” jamoasi ketma ket ikkinchi mavsumni to'rtinchi o'rinda yakunladi. Avval Bahrom Umarov boshchiligida, o'tgan yil esa Abduvali Mo'minov yetakchiligidagi yoshlarimiz butun

mavsum hujumkor futbol namoyish etib, muxlislarimiz olqishiga sazovor bo'ldi.

Eng asosiysi bosh jamoaga munosib o'rinbosarlar yetishib kelayotganligi ko'zga tashlanmoqda. Fikrimiz isboti o'laroq bosh murabbiy Vesko Steshevich asosiy tarkibga U21 jamoasidan ko'plab o'yinchilarni jalb etdi: bular – Samandar Muratboyev, Alisher Xayrullayev, Nosir Abdusalomov, Sarvar Abduhamidov, Zafarbek Rahimjonov, Ro'ziboev Fayzullayevlar... Ularning barchasi O'zbekiston o'smirlar va yoshlar terma jamoalariga ham jalb etilayotganligi bejiz emas.

BAHORNING BIRINCHI KUNI SUPERLIGA-2024 START OLADI

O'zbekiston professional futbol ligasi rasmiy saytidagi ma'lumotga ko'ra mamlakat XXXIII milliy chempionati bahslari 1-mart sanasidan start oladi. Hozircha loyiha sifatida taqdim etilgan taqvimga binoan mart oyida jamoalar 4 ta tur uchrashuvda maydonga chiqishadi. 5-tur bahslari esa aprel oyining birinchi haftasiga rejalashtirilgan. Shundan so'ng chempionatimizda U23 jamoalari o'rtasidagi Osiyo kubogi munosabati bilan tanaffus yuzaga keladi. Bu bo'shliqni

O'zPFL O'zbekiston kubogi guruh bosqichi o'yinlari bilan to'ldirishni mo'ljallayapti.

3-may sanasidan Superliga o'yinlari yana davom ettiriladi. May va iyun oylarida jamoalar birinchi davra o'yinlarini yakunlab olishlari kutilmoqda. O'z navbatida 3-11-iyun sanalari FIFA kunlariga ajratilganligini ham aytib qo'yish kerak. Iyul oyi Superliga klublari uchun davralar oralig'idagi ta'til uchun ajratiladi.

Yangi mavsum boshlanishiga bir oy vaqt qolayapti.

“METALLURG” YANGI MAVSUMGA TAYYORLANMOQDA

“Metallurg” jamoasi yangi mavsumga ilk tayyorgarlik jarayonini 10-yanvar sanasidan boshladi. Shu kuni murabbiylar shtabi hamda futbolchilar jamoaning Bekobod shahridagi qarorgohida jamlanishdi.

Bir haftalik mashg'ulotlardan keyin yig'inning ikkinchi

qismi Toshkent shahrida davom ettirildi.

Poytaxtdagi yig'in davomida jamoamiz bir qator nazorat uchrashuvlar o'tkazdi. Shundn zo'ng “Metallurg” o'quv-mashg'ulot yig'inini xorijda – Turkiyada davom ettirishni rejalashtirilgan.



TARKIBDAGI O'ZGARISHLAR

“Metallurg” o'z tarkibini besh nafar yangi o'yinchi bilan to'ldirib oldi. Chernogoriyalik hujumchilar – Marko Milichkovich, Boban Jorjevich, tojikistonlik himoyachi Davron Ergashyev, shuningdek, darvozabon Rahim Davronov hamda yarim himoyachi Sirojiddin Qo'ziyevlar bilan shartnoma imzolandi. Jamoa rahbariyati Bekobodda va Toshkentda bo'lib o'tgan yig'inlar davomida yana bir qator yangi nomlarni ko'rikdan o'tkazdi.

Jamoamiz yangi mavsum

arafasida bir qator o'yinchilar bilan do'stona xayrlashdi. Bular darvozabonlar – Aleksandr Lobanov, Vladimir Vagin, himoyachilar – Danial Mahini, Muhammadali Aliqulov, Mirkomil Abdurazzoqov, yarim himoyachilar – Sardor Abduraimov hamda Muhammadaziz Ibrohimovlardir.

“Metallurg” PFK mazkur o'yinchilarning barchasiga Bekobod klubi ravnaqi yo'lida qo'shgan hissasi uchun minnatdorchilik bildirdi.

XULOSA QILISHGA SHOSHMAN!

Bir jajji qizcha ikki qo'lida ikkita olma ushlab turardi. Shu vaqt onasi kirib keldi va tabassum bilan, ohista qizidan so'radi:

– Asaltoyim, oyijoningga shu olmalarindan birini berasanmi?

Shunda qizaloq onasiga bir muddat qaradi-da, shart olmani birini tishlab oldi va tezda yana ikkinchi olmani ham tishlab qo'ydi. Onasi buni ko'rib yuzidagi tabassum muzladi,

hafsalasi pir bo'ldi, lekin buni qizchasi-ga bildirmaslikka o'zida shijoat topa oldi, sabr qildi. Qizi esa darhol tishlangan



olmalardan birini onasining qo'lga tutqazib, shunday dedi:

– Oyijon, mana bunisi Sizga, shunisi shirinroq ekan.

Xulosa: Siz kim bo'lsangiz ham, qanchalik hayot tajribangiz ko'p bo'lsa ham, o'zingizni shu qadar bilimdonman deb hisoblasangiz ham, har doim hukm chiqarishni ortga suring. Boshqalarga imkon bering, o'zlari tushuntirib berishsin. Siz ko'rib, eshitib turgan

narsa haqiqat bo'lmasligi mumkin. Hech qachon birovlar uchun xulosa chiqarib qo'ymang.

*HAYOTIY HIKOYA*HAYOTIY HIKOYA* HAYOTIY HIKOYA*HAYOTIY HIKOYA*

Bir kishiga do'stlari echkiemar sovg'a qilishdi. U bu noyob mavjudotni parvarish qila boshladi. Kunlarning birida kutilmaganda echkiemar uning barmog'idan tishlab oldi. Jon achchig'ida bu mahluqni yo'qotmoqchi bo'ldi, lekin jonivorning ko'zlariga ko'zi tushgach, bo'shshib, g'azabi bosildi. Echkiemar go'yoki unga sadoqat to'la nigohlari bilan mahzun boqib "kechir, xo'jayin" deyayotganday tuyildi.

Jonivor kun bo'yi uning ortidan ergashib bir qadam ham nari ketmadi. Xo'jayin shunday sodiq do'stni yo'qot-



ECHKIEMAR

moqchi bo'lganligini o'ylab biroz xijolat ham bo'ldi.

Ertalab uyg'onib qarasa "do'sti" tun bo'yi yonidan jilmay, undan ko'z uzmay, g'amgin nigohlari bilan unga qarab turganini ko'rdi. Va ichidan qanday ajoyib, g'amxo'r hayvoni borligini o'ylab suyundi. Uning bu mamnunligini kechagi jarohatlangan barmog'ining shishib, chidab bo'lmas og'riq berishi buzardi. Echkiemarini yoniga olib shifokor ko'rigiga bordi.

U yerda ma'lum bo'lishicha echkiemarning bu turi zaharli hisoblanib, zahar kuchsiz bo'lganligi sababli o'lja birdaniga o'lmagan, shuning uchun bu aqlsiz mahluqlar o'ljani avval tishlab, keyin uning o'lishini poylab, ortidan ergashishar ekan...

Sadoqat bilan ko'zlaringizga boqib, ortingizdan ergashadigan, o'tirsangiz atrofingizda tikka turadiganlarga ko'p ham ishonavermang, ular shunchaki paytini poylab turgan bo'lishlari ham mumkin...

JON FIDO

Bugun men 9 yashar qizchaga jarrohlik operatsiyasini o'tkazdim. Bizda unga kerakli bo'lgan guruhdagi qon qolmagan edi. Uning egizak akasning ham qon guruhi bir xil ekan, undan olishimizni aytganimizda u cho'chib tushdi, biroq bu hayotmamt masalasi ekanligini bolaga tushuntirganimda, bola biroz o'ylanib turdi-



da, roziligini aytib, ota-onasi bilan xayrlashdi.

Qonini olganimizdan so'ng, u "endi men qachon o'laman?", deb so'radi. Uni tushunmagan ekanman. U singlisi uchun jonini fido qilayapman, deb o'ylab qon topshirishga rozi bo'lgan ekan.

Xayriyat, endi ikkalasi ham yaxshi.

Shifonur.

KELING, BIR KULISHAYLIK!

Doktor:

– Hammasiga sigaret bilan aroq aybdor!..

Bemor:

– Xayriyat-ye, doktor, ayb mendamikin deb o'ylabman.

– Agar erim men bilan janjallasha boshlasa, onamnikiga ketaman, deb qo'rqitaman.

– Men esa buning teskarisini qila-

man. Ertadan boshlab oyimni uyga olib kelaman, desam bas, erimning ovozi o'chadi-qoladi.

Er xotiniga dedi;

– Esingdami, o'tgan yili tilla soatingni yo'qotganding. Bugun shkafni ochib eski kurtkangning cho'ntagini qaragam...

– Voy soatimni topdingizmi?!

– Yo'q, taxminimcha, soating tushib ketgan teshikni topdim.

JALOLIDDIN RUMIY
HIKMATLARI

Vafoni vafosizdan, odobni hayosizdan, marhamatni vij-donsizdan kutib o'tirmang.

Odob – beodobning odob-sizligiga sabr-toqat qilishdir.

Unutmang, muvaffaqiyatga erishish uchun butun umr sarflanadi, yo'qotish uchun esa bir onlik g'afat kifoya...

Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki so'z qalbdan kelib, tildan chiqadi.

Gulning go'zalligi urug'idan, insonning husni esa qalbidandir.

Ming yil o'qisamu, mendan "nimani bilding", deb so'rasalar, "haddimni bildim" deyman.

Go'zal kunlar kelishini kutma. Unga tomon bormog'ingni unutma.

Odamlar suratini bezatsa, sen siyratingni beza. Odamlar boshqalar aybidan so'z ochsa, sen o'z qusuringni o'yla.

Tilingdan oldin qalbingni tarbiya qil. Chunki so'z qalbdan kelib, tildan chiqadi.

QISQA HIKOYALAR

"DARDKASH"

– O'zinga sig'may zo'rg'a turgan edim. Kennoyim kelgunlaricha jijanlarimga qarab turishim kerak. Yana ertaga taqdimotim bor. Kurs ishi yozishim, buvinga dorisini tayyorlashim, kutubxonachiga uchrashim kerak. Uff, qanday ulgurishni ham bilmayman. Yaxshiyam qo'ng'iroq qilding...

– Ha, mayli siqilma, ham-

masi yaxshilikka... Dugonajon, bugun imtihonim bor edi-da, yordamlashvor.

Arjumandbegim.

OR

Yolg'izlik qiyin ekan. Umr bo'yi oliygohda farroshlik qilib o'qitgan farzandi bugun unga shart qo'ydi:

– U yerda yo men o'qiyman, yo siz ishlaysiz!

Charos AVAZOVA.

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!



Sellofan paketlarda saqlasa bo'ladigan va saqlash mumkin bo'lmagan oziq-ovqat mahsulotlarini bilasizmi?

Tuya qancha vaqt ovqat yemay, suv ichmay yurishi mumkin?

Javoblarni gazeta-niing keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

Bular Qashqadaryo viloyatining Yakkabog' tumanidagi ulkan ikki archa daraxtlaridir.

Tuya bir necha ming yillardan hozirga qadar odamzotga tashuvchilik xizmatini qilayotgan yagona jonivordir.

Marokashdagi Al Qarovin universiteti. Unga 857 yilda asos solingan bo'lib, u hozirgacha ishlab keladi. Hozirda uning yoshi 1166 dan oshdi. U Ginnesning rekordlar kitobiga kiritilgan.

Norvegiya maktablari-da o'quvchilarga 8-sinfgacha umuman baho qo'yilmaydi.

100 gramm asal yig'ish uchun asalari 46 000 kilometr masofani bosib o'tar ekan.

2024-yil – YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

**O'ZBEKISTON
METALLURGIYA
KOMBINATI
1944-2024**



UMUMXALQ BAYRAMLARI

- 1-yanvar – Yangi yil.
- 8-mart – Xotin-qizlar kuni.
- 21-mart – Navro‘z bayrami.
- 9-may – Xotira va qadrlash kuni.
- 1-sentabr – Mustaqillik kuni.
- 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni.
- 8-dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni.

Ro‘za hayit (Iyd al-Fitr) va Qurbon hayit (Iyd al-Adha) bayramlarining birinchi kuni.



YANVAR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

FEVRAL

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
			1	2	3	4
5	6	7	8	9	10	11
12	13	14	15	16	17	18
19	20	21	22	23	24	25
26	27	28	29			

MART

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
				1	2	3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31

APREL

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30					

MAY

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
				1	2	3
4	5	6	7	8	9	10
11	12	13	14	15	16	17
18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31

IYUN

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
					1	2
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30

IYUL

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	7
8	9	10	11	12	13	14
15	16	17	18	19	20	21
22	23	24	25	26	27	28
29	30	31				

AVGUST

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
					1	2
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30
31						

SENTABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30						

OKTABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
1	2	3	4	5	6	
7	8	9	10	11	12	13
14	15	16	17	18	19	20
21	22	23	24	25	26	27
28	29	30	31			

NOYABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
					1	2
3	4	5	6	7	8	9
10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23
24	25	26	27	28	29	30

DEKABR

Du	Se	Ch	Pa	Ju	Sh	Ya
						1
2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15
16	17	18	19	20	21	22
23	24	25	26	27	28	29
30	31					



MUASSIS:
O`zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.

WWW.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O`zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining
Metallurglar madaniyat saroyida
joylashgan.
Tel: 10-17, 70-214-19-24

Gazeta oyda bir marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi va "Niso Poligraf"
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
O`rta Chirchiq tumani, "Oq ota"
hududi "Mash'al" mahallasi,
"Markaziy" ko'cha, 1-uy.

Sahifalovchi:
Inom Xojimurodov

Bosishga topshirish vaqti 17.00
Bosishga topshirildi-15.00
Adadi 600. Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X
Gazeta "O`zmetkombinat"
Ajda bepul tarqatiladi.